
Vol. 2, No. 1 (2026)
ISSN-L: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN
ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



Vol. 2, No. 1 (2026)

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Maxmudova D.A. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov N.A.– pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

DIDAKTIK O‘YINLARNING ONA TILI TA’LIMIDAGI O‘RNI

Kamolova Nilufar Saxibovna
BXU magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limida didaktik o‘yinlarning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Didaktik o‘yinlarning o‘quvchilarning savodxonligini oshirish, grammatik tushunchalarni mustahkam o‘zlashtirish, mustaqil fikrlash, ijodkorlik va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, grammatik o‘yinlarni tashkil etishning metodik jihatlari hamda ularning ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Didaktik o‘yinlar, ona tili ta’limi, boshlang‘ich sinf, grammatik o‘yinlar, savodxonlik, ta’lim metodlari, o‘quv faoliyati, mustaqil fikrlash, jamoaviy ish, ta’lim samaradorligi.

Annotation: This article discusses the role and significance of didactic games in mother tongue education at the primary school level. The study analyzes the potential of didactic games in improving students’ literacy, strengthening the acquisition of grammatical concepts, and developing independent thinking, creativity, and teamwork skills. The methodological aspects of organizing grammatical games and their contribution to enhancing educational effectiveness are alsoexamined.

Keywords: Didactic games, mother tongue education, primary education, grammatical games, literacy, teaching methods, learning activity, independent thinking, teamwork, educational effectiveness.

Аннотация: В данной статье рассматриваются роль и значение дидактических игр в обучении родному языку в начальных классах. Анализируются возможности дидактических игр в повышении грамотности учащихся, прочном усвоении грамматических понятий, развитии самостоятельного мышления, творческих способностей и навыков коллективной работы. Также освещаются методические аспекты организации грамматических игр и их влияние на повышение эффективности образовательногопроцесса.

Ключевые слова: Дидактические игры, обучение родному языку, начальное образование, грамматические игры, грамотность, методы обучения, учебная деятельность, самостоятельное мышление, командная работа, эффективностьобразования.

KIRISH

Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitishning asosiy vazifasi ushbu fanning bilimlar tizimini egallash, so‘zlarning grammatik shakllarini ishlab chiqish, savodli

yozuv ko‘nikmasini hosil qilishdir. Bu vazifalarni ro‘yobga chiqarish o‘ta murakkab bo‘lib, o‘qituvchining xilma-xil o‘qitish metodlarini egallashini, o‘quvchilarni mumkin qadar ijodiy fikrlashga o‘rgatishni va har bir mashg‘ulotga qiziqtira bilishni taqozo qiladi. Bolalarning yozuv savodxonligini oshirish uchun uning xotirasida so‘zning yorqin tassavurini mustahkamlash, so‘z tarkibi va gap bo‘laklarini to‘g‘ri hamda tez farqlash qobiliyatini o‘stirish kerak.

Didaktik o‘yinlar ta’limning ko‘rgazmaliligi, o‘qituvchining nutqini va bolalar harakatini o‘z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko‘rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug’iladi. Bu esa o‘qituvchining aytganlarini bolalarning o‘ylab olishiga va aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya’ni didaktik o‘yin qoidalarini o‘zlari bajarishlariga undaydi. Ta`lim o‘yinlarning bu tarzda tuzilish xususiyatlari o‘quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkonini beradi. Shuning uchun ham barcha bolalar o‘yin vaqtida zo‘r qiziqish bilan harakat qiladilar. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, didaktik o‘yinlar hamjihatlik va intizomlikni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o‘yin g’alaba qozonish bilan bog’liq bo‘lib, o‘yin shartlari va qoidalariga qat’iy va izchil rioya qilishni talab etadi. “Kim aniqroq va tezroq”, “Bo‘sh kelma”, “Eng yaxshi hisobchi”, “Ko‘rganni eslab qolish” kabi o‘yinlarni o‘tkazish paytida o‘quvchilar sinf xonasida jimjitlik bo‘lishiga o‘quvchilarning o‘zlarining tuta bilishlariga, partadan tovush chiqarmay turib, oyoq uchida doskaga chiqa olishlariga, joylariga osayishtalik bilan qaytib kelib o‘tirishlariga, tovushlarni diqqat bilan tinglashlariga, raqamlarga zehn bilan tinglashlariga, raqamlarga zehn bilan qarashlariga erishadilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ona tili qonun-qoidalari, hodisalari mavhum fikr yuritishni taqozo etadi. Shu tufayli ular ko‘pincha o‘ynash, jismoniy harakat qilishga intiladilar. Amaldagi o‘quv dasturiga asosan o‘yin mashg‘ulotlari bugungi darslarning qurilishida tez-tez uchrab turadi. Chunki bolaga berilayotgan bilimni o‘yinlar vositasida singdirish quruq qoida yodlash va surunkasiga mashq qildirishdan qiziqroq tuyuladi va o‘tilgan mavzuning mustahkam esda saqlanishiga imkon beradi.

Grammatik o‘yinlarni o‘tkazish usullari xilma-xil bo‘lib, uni maktab o‘qituvchilari mukammal egallab olishlari va o‘quvchilarning o‘zini shunga o‘rgatish zarur. Grammatik o‘yinlar til materiallarini o‘rgatishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Bu o‘yinlar bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Grammatik o‘yinlar bolalarda mustaqillikni tarbiyalaydi. O‘quvchilarni tez o‘ylashga, mustaqil fikrlab javob berishga, zehnli bo‘lishga, har bir ishda tashabbus ko‘rsatishga undaydi. Faoliyat ko‘rsatishga chorlaydi. Bu mashg‘ulotlar bolalarning diqqatini bir yerga to‘playdi. O‘quvchilarda sog‘lom musobaqa ruhini tug‘diradi. Bunday didaktik o‘yinlar va ularda berilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilarda jamoa bilan ishlash, o‘ziga va o‘z jamoasiga hamda o‘zgalarga hurmat-e`tiborda bo‘lish xislatlari shaklanadi. O‘yin jarayonida ularning muomala madaniyatida ijobiy munosabatlar tarkib topadi. Bu

o‘yinlar o‘quvchilarni faollik ko‘rsatish, topqirlik, fahm-farosatli bo‘lishga, dars jarayonida olgan nazariy bilimlarini amaliyotga taqbiq eta olishni talab qiladi.

Grammatik o‘yinlarni tashkil qilish ham bir qator metodik omillarni hisobga olishni taqozo etadi. Bu usulni dars jarayoniga tadbiq etar ekan o‘qituvchi har bir mavzuga, uning mazmuniga ijodiy yondashishi zarur. Yana bir muhim tomoni grammatik o‘yinlarni uyushtirishda sinf o‘quvchilarining xususiyatlari ham hisobga olinishi kerak. O‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi, qaysi sinfda o‘qishi va o‘rganilgan mavzularni hisobga olish va mashg‘ulot mazmunini ana shu ko‘rsatkichlarga qarab tuzish grammatik o‘yinlarning samarali uyushtirilishiga ijobiy ta`sir qiladi. O‘rganilayotgan grammatik tushunchalarni tez va mustahkam o‘zlashtirib olish imkonini beradi. Grammatik o‘yinlar grammatikaning qaysi bo‘limi yuzasidan o‘tkazilishiga qaramay, ular tasodifan bo‘limasligi kerak. O‘qituvchi unga ham darsga tayyorgarlik ko‘rganday puxta hozirlik ko‘rishi lozim.

Har qanday grammatik o‘yin uyushtirilar ekan unga bolalar tayyor bo‘lishlari kerak. Aks holda bola bajarilishi rejalashtirilgan ishning mazmunini tushunmagan holda unga kirishadi. O‘zi lozim ko‘rgan yo‘nalishda ishga kirishadi.

Bu holat o‘quvchining inteliktual holatini o‘stirmaydi. Bolani chalg‘itib qo‘yadi. Agar o‘yinga bir necha bor shunday kirishilabersa, bunday mashg‘ulot zerikarli bo‘lib qoladi va oqibatda bolaning bilish faoliyatiga aks ta`sir qiladi. Uning oldini olish maqsadida o‘quvchilarga beriladigan har bir topshiriqning mazmuni to‘liq tushuntirilishi, o‘xshash misollar bajarib ko‘rsatilishi, namuna berilishi lozim. Grammatik o‘yinlar bolalarning bilim darajasiga qarab murakkablashtirilishi yoki soddalashtirilishi mumkin. Buni o‘qituvchining o‘zi belgilaydi. Bolalarga fonetikadan so‘zning oxiriga bir tovush qo‘shib yangi so‘z hosil qilish o‘yini o‘tkazilganda so‘zga qo‘shilgan tovushni so‘zning tarkibi bo‘yicha tahlil qilish topshirilsa o‘yin murakkablashadi.Berilgan so‘zlar ishtirokida gap tuzish o‘yini o‘tkazilganda ishni qaysi so‘zdan boshlab ko‘rsatilsa o‘yin soddalashadi.

O‘yinni soddalashtirish yoki murakkablashtirishni o‘qituvchining o‘zi o‘ylab ko‘rishi lozim. O‘yinga bir-ikki nafar bolaning faol qatnashishi bilan chegaralanib qolmaslik zarur. Unga o‘quvchilarning aksariyat qismi, iloji bo‘lsa hammasi faol qatnashishi kerak. Chunki o‘yin bolalarni jamoatchilik ruhida tarbiyalaydi.O‘yinlarni bolalar jamoa bo‘lib bajarar ekan, uning barcha a`zolari faol qatnashgandagina ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin. Bu mashg‘ulotda barcha oq`uvchi bir maqsad yo‘lida harakat qiladi. Hamma g‘olib bo‘lishga intiladi. Bunday holat har bir o‘quvchining ma`suliyatini oshiradi.

Javob berayotgan o‘quvchi o‘z guruhining ishonchini oqlashga harakat qiladi. Noto‘g‘ri javob bersa, bolalar oldida o‘zini noqulay sezadi. Ayrim hollarda o‘zini-o‘zi koyiydi. Keyingi o‘yinlarga puxta hozirlik ko‘radi. Bunday mashg‘ulotlar bolalarni ko‘proq o‘qishga chorlaydi. G‘oliblik nashidasini birgalashib surishga undaydi. O‘yinda kimdir mag‘lubiyatga uchraydi. Bu tabiiy hol. Shuning uchun o‘yin bellashuvlar bolalarni yana bir xislatga- mag‘lubiyatni tan olishga o‘rgatadi.

Bu esa bola tarbiyasida juda muhim. Ba`zan o‘quvchilar orasida o‘z mag‘lubiyatini tan olmay, kimdandir kamchilik axtarishga, hakamlarni “sotilgan”likda ayblashadi. Maktab hayotida bunday voqealar tez-tez uchrab turadi. Bunday holatda o‘quvchiga yotig‘i bilan tushuntirishdan zerikmaslik lozim. Bir-ikki marta shunday munozaradan keyin o‘yin mashg‘ulotlarini to‘xtatib qo‘ymaslik kerak emas.

XULOSA

Bolalarga o‘yinni o‘rgatishdan muayyan ta’limiy maqsad nazarda tutiladi. O‘yinning eng muhim ahamiyati ham ana shundadir. O‘yin o‘tkazilish shakllari va usullari ta’limning boshqa turlaridan farq qiladi. Didaktik o‘yin usullari cheksiz, takrorlash va o‘zgartirish, unga turli yangiliklar kiritish imkoni bor. Masalan, biz “Jimjitlik” o‘yinining 5-7 xilini butun sinf bilan hamda ayrim bolalar bilan 10 martadan ko‘proq takrorlab o‘tkazdik, “Nima o‘zgardi?” turidagi o‘yin 5 xil turli ko‘rsatmali material bilan o‘tkazildi. Natijada o‘yin malakalarining bir xilda va mustahkam bo‘lishiga hamda o‘yinning har bir qoidasini tinglay bilish va unga rioya qilishiga erishish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Klarin M. V.. Pedagogik texnologiyalar ta’lim samaradorligini oshirish vositasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.

2. Tolipov O‘., Usmonboyeva M.. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2012.

3. G‘ulomov A. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.

4. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2021.

5. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Ona tili fanidan amaldagi o‘quv dasturi. – Toshkent, 2024.

MUNDARIJA

UYUSHMAGAN YOSHLAR VA ULARNING MUAMMOLARI Atabayeva Nargis Batirovna	**4**
TURLI YOSH DAVRLARIDAGI SHAXSLARDA O‘ZINI O‘ZI FAOLLASHTIRISH VA EMOTSIONAL SOHA O‘RTASIDAGI ALOQADORLIKLAR Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li	**25**
O‘ZBEK VA QIRG‘IZ QIZLARINI ETNIK STEREOTIPLARI VA IJTIMOIY USTANOVKALARINI ILMIY TADQIQ ETISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI Djuxonova Noxida Xayotjonovna	**33**
ZAMONAVIY SHIFOKORLAR PROFESSIONAL KARERASIDA PSIXOLOGIK OMILLARNING TA’SIRI Arziqulov O‘tkirbek Maxammatovich	**43**
KIMYOVIY ADDIKTATSIYALARDA OILAVIY MUHITNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI Mirashirova Nargiza Anvarovna., Raxmatova Zulxumor Alimovna	**50**
TYUTORLARNING BOSHQARUV USLUBLARI VA ULARNING TA’LIM SAMARADORLIGIGA TA’SIRI Alijonov Nurbek Ulug‘bek o‘g‘li	**56**
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY TAFAKKUR RIVOJLANISHINING JINSIY XUSUSIYATLARI Rajabov Murodil Jumaboyevich., Yuldasheva Shoxista Tojialiyevna	**70**
TA’LIM MUHITIDA O‘QUVCHI SHAXSI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK USULLARI Soliyev Farxodjon Sodiqovich., Akbarova Nigora Axmadjonovna	**78**

MUNDARIJA

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB O‘QUVCHILARIDA KASBIY O‘ZINI-O‘ZI BELGILASH: MOTIVATSION VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI Mo‘minov Davronjon Marifjon o‘g‘li	**92**
O‘ZBEK VA RUS QIZLARINI OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARINI AMALIY O‘RGANILISHI Usmonova Nargiza Raximjonovna	**102**
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ Мирзажонова Элеонора Топволдиевна	**110**
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RUHIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI Z.O.Abdullayeva	**117**
HARBIY FAOLIYATDA ZAMONAVIY STRESS OMILLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Abdumalikova Iroda Abdulaziz qizi	**125**
PSIXOLOGIK BARQARORLIK VA MOLIYAVIY STRESS MUAMMOSINING ILMIY TADQIQ ETILGANLIK DARAJASI Sotvoldiyeva Nargiza Abdukarimjon qizi	**136**
КОРРЕЛЯЦИЯ ИНФОРМАЦИОННОГО И ТЕМПЕРАМЕНТНОГО КРИТЕРИЕВ ВЕРТНОСТЕЙ В СФЕРЕ КОГНИТИВНОЙ СОЦИОНИКИ Туллекова Карина Сергеевна	**143**
TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARNING SHAKLLANISH OMILLARI VA BARTARAF ETISH YO‘LLARI Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	**157**

MUNDARIJA

MURAKKAB BICHIMDAGI USTKI KIYIMLARNI MODELLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Sattorova Ra’no Abdunazar qizi., Sindarova Shoxista Maxammatovna	**166**
HARBIY TA’LIM MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI Sotvoldiyev Abdulhoshim Yuldashovich	**173**
HARBIY TA’LIM FAKULTETI TALABALARIDA TOLERANTLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI Qarshiev Azamat Raxmonovich	**177**
INTERFAOL TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHDA RAQAMLI INFRATUZILMANING ROLI VA AHAMIYATI Kenjayev Anvar Sattorovich., Kobilov Nozimjon Mingboyevich	**183**
TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA CHAQIRIQQACHA HARBIY TA’LIM TALABALARINI O‘QUV-BILUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH Kobilov Nozimjon Mingboyevich., Kenjayev Anvar Sattorovich	**189**
O‘ZBEKISTONDA BAG‘RIKENGLIK SIYOSATINI YURITISHDA ETNOTURIZMNING O‘RNI Shavkat Bobojonov	**194**
BUXORONING OILAVIY VA JAMOAVIY MAROSIMLARI (MAHALLIY ERONIYLAR MISOLIDA) Iroda Kalonova	**198**
ELLIPTIK GAPLARNING STILISTIK MAQOMI Rasulov Zubaydullo Izomovich	**204**

MUNDARIJA

PRAGMATIC AND COGNITIVE ANALYSIS OF CONCEPT "PEACE" IN POLITICAL SPEECH Rakhmatova Mehriniso Musinovna., Rakhmonova Jasmina Anvarovna	**209**
TIL EVOLYUTSIYASIDA O'ZGARUVCHANLIK VA TEJAMKORLIK PRINSIPLARI Qobilova Nargiza Sulaymonovna	**215**
ZAMONAVIY INTERNET-MULOQOTDA LINGVOMADANIY BIRLIKLAR FENOMENI Jalolova Nigina Zavqiddin qizi	**224**
DIDAKTIK O'YINLARNING ONA TILI TA'LIMIDAGI O'RNI Kamolova Nilufar Saxibovna	**228**
SAVOD O'RGATISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH G'iyosova O'g'iloy Sultonovna	**232**

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKASIYALAR SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI

ГУВОҲНОМА

№1564147 Фаол

"FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669890

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
312386344

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
05.05.2026дан - - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Тошкент шаҳри, Сирғали тумани, Янги Бунёдобод МФЙ, Сергели 6а мавзеси, 8-уй, 148-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат инспекцияси

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Гувоҳнома **№1564147**

Faoliyat turi

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Qo'shimcha ma'lumotlar

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Fanlararo ilmiy tadqiqotlar
Оммавий ахборот воситасининг тили	o'zbek, rus va ingliz tili
Оммавий ахборот воситасининг тури	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Республика миқёсида
Viloyat	
Тарқатилиш шакли	Онлайн

License SYSTEM

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA